

LOGISTIKA INFRATUZILMASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH

Jamolova Sitora Anvar qizi

Talaba.

O‘rinboyeva Xushnida Saydulla qizi

Talaba.

Muhiddinov Tohirjon To‘lanboy o‘g‘li

Talaba.

Narzullayeva Dilnura Azizbek qizi

Talaba.

Ahmadqulova Zarnigor Kamoliddin qizi

Talaba.

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU, O‘zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19055483>

Annotatsiya. Maqola O‘zbekistonda logistika infratuzilmasini rivojlantirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganadi. Maqsad – transport xarajatlarini optimallashtirish, tovarlarni o‘z vaqtida yetkazish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. Maqolada erishilgan natijalarga ko‘ra, zamonaviy logistika markazlari va erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, transport va axborot-kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish orqali respublikada tovar va xizmatlarning samarali oqimini ta‘minlash mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: logistika infratuzilmasi, axborot texnologiyalari, transport xarajatlari, logistika markazlari, erkin iqtisodiy zonalar, eksport, tovar tashish.

Аннотация. Статья посвящена развитию логистической инфраструктуры в Узбекистане и эффективному использованию информационных технологий. Цель исследования – оптимизация транспортных расходов, своевременная доставка товаров и повышение конкурентоспособности экономики. Результаты показывают, что создание современных логистических центров и свободных экономических зон, а также совершенствование транспортных и информационно-коммуникационных систем обеспечивает эффективный поток товаров и услуг в стране.

Ключевые слова: логистическая инфраструктура, информационные технологии, транспортные расходы, логистические центры, свободные экономические зоны, экспорт, перевозка товаров.

Abstract. The article examines the development of logistics infrastructure in Uzbekistan and the effective use of information technologies. The aim is to optimize transportation costs, ensure timely delivery of goods, and enhance the competitiveness of the economy. The results indicate that establishing modern logistics centers and free economic zones, along with improving transport and information-communication systems, can ensure efficient flow of goods and services within the country.

Keywords: logistics infrastructure, information technologies, transportation costs, logistics centers, free economic zones, export, cargo transportation.

Kirish. Bugungi kunda sanoatlashayotgan mamlakatlarda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish yoki kengaytirish uchun erkin iqtisodiy hududlar va maxsus sanoat zonalarini tashkil etilmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish vazifalari belgilangan.

Ushbu strategiya doirasida: ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish masalalari ustuvor etib belgilangan.

Shuningdek, Angren-Pop temir yo‘li barpo etilishi bilan mamlakatda yagona temir yo‘l tizimi vujudga keldi va ushbu liniya Buyuk Ipak yo‘lidagi davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun zamin yaratmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish va uning iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rgangan olimlar turli fikrlar bildirganlar:

✚ D. Bauersoks fikriga ko‘ra, logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish ob‘ektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash va inventarizatsiyani boshqarish terminallari hamda chakana do‘konlarni o‘z ichiga oladi. Logistika infratuzilmasini tashkil etishda geografik joylashuvi aniq bo‘lgan ob‘ektlar (ombor komplekslari) va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zaxiralari hisoblanishi kerak. Shu bilan birga, transport tarmoqlari va kompaniyalari alohida qayd etiladi.

✚ A.D. Chudakovga ko‘ra, logistika infratuzilmasi – bu moddiy-texnika resurslari, yetkazib beruvchilarning ta‘minot zanjiri ishtirokchilari, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarni o‘z ichiga oladi. Muallif logistikaning barcha sohalari, jumladan moddiy-texnik ta‘minot, transport va saqlash, inventarizatsiyani boshqarish va marketing faoliyatini ham o‘z ichiga olishini ta‘kidlaydi.

✚ A.L. Nosov fikriga ko‘ra, logistika infratuzilmasi insonlarning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotini ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan moddiy va texnik tizimdir. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish – ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalar samaradorligi uchun asosiy shart hisoblanadi. Muallif unga temir va avtomobil yo‘llari, aloqa, turli transport vositalari, ombor xo‘jaligi va turli inshootlarni kiritadi.

✚ Yuqoridagi fikrlarni inobatga olganda, logistika infratuzilmasini iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bino-inshootlar, transport tizimlari, ishlab chiqarish ob‘ektlari, yuk tashuvlari va omborxonalar majmuasi sifatida ta‘riflash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlar va logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish, muammolarni aniqlash va ularni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning logistika ko‘rsatkichlari indeksi, logistika markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tajribasi tahlil qilindi. Ushbu tahlil qiyoslash, analiz va sintez usullari orqali mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra:

✚ respublika avtomobil transporti operatorlari tomonidan ko'rsatilayotgan yuk tashish xizmatlari rivojlangan mamlakatlarning o'xshash ko'rsatkichlaridan farq qiladi.

✚ tannarx tarkibida yonilg'i, amortizatsiya xarajatlari, soliq va yig'imlar ulushi yuqori bo'lib, haydovchilar ish haqi ulushi esa nisbatan past.

✚ transport xarajatlarining asosiy moddalari – transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va yoqilg'i-moylash materiallari.

✚ respublika hududiy avtomobil transporti birlashmalarida ishlatilayotgan transport vositalarining eskirish darajasi bozorda raqobatga bardosh bera olmaslikka sabab bo'lmoqda.

✚ bu tahlil logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi, chunki samarali it tizimlari transport xarajatlarini optimallashtirish, yuk tashish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

1-jadval

Avtomobil tarnsportida yuk tashish tannarxining tarkibiy tuzilishi

Харажатлар номи	Ташиш тannархидaги улushi % дa	
	Ўзбекистон	Европа иттифоқи
Ўқилгн	37 - 40	16 - 20
Мойлаш материаллари	2 - 2,2	3
Хайдовчининг иш хақи	15 - 16	52 - 55
Шина харажатлари	2 - 2,5	1 - 1,1
Амортизация ажратмалари	10 - 12	5 - 6
Солиқ ва йигимлар	6 - 7	2
Бошқа харажатлар	20 - 21	16

Mamlakatimiz dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu munosabat bilan 1996 yil aprelda “TRASEKA” dasturiga muvofiq idoralararo ishchi guruhi tuzildi. Ushbu guruh transport koridorlarini tashkil qilish va umumlashtirish vazifasini bajardi.

Transport koridorlari va yo'nalishlar

- ✚ Ishchi guruh qurgan asosiy koridorlar:
- ✚ Toshkent – Ashgabad – Turkmanboshi porti – Baku porti
- ✚ Almata – Toshkent – Istambul avtomagistrali
- ✚ Markaziy Osiyo – Sharqiy Xitoy portlari
- ✚ Markaziy Osiyo – Tedjen – Seraxs – Mashhad – Bandar Abbas porti (Eron)
- ✚ Markaziy Osiyo – Eron – Turkiya (Istambul porti)

Xalqaro yuk tashuvlari uchun asosiy yo'nalishlar

- ✓ 1-yo'lak: Boltiqbo'yi davlatlari portlari (Klaypeda, Riga, Liepaya, Ventspils, Tallin)
- ✓ 2-yo'lak: Belarus va Ukraina orqali Yevropaga chiqish
- ✓ 3-yo'lak: Ukraina – Ilichevsk porti, Qora dengizga chiqish
- ✓ 4-yo'lak: Gruziya – Poti va Batumi portlari, TRASEKA yo'lagi
- ✓ 5-yo'lak: Eron – Bandar-Abbos porti, Fors ko'rfazi
- ✓ 6-yo'lak: Sharqiy yo'nalish – Xitoy orqali Sariq dengizga
- ✓ 7-yo'lak: Uzoq Sharq – Naxodka va Vladivostok portlari, Sariq dengizga
- ✓ 8-yo'lak: Turkiya va Yevropa – Baku-Axalkalaki-Kars temir yo'li

Qo‘shimcha rivojlantirilayotgan yo‘nalishlar:

- ✚ Yevropa – Janubiy-Sharqiy Osiyo (Mersin porti orqali)
- ✚ Xitoy portlari (tranzit orqali Qirg‘iziston, Sariq va Janubiy-Xitoy dengizlari)

Transport koridorlarining ahamiyati

- ✓ Xalqaro ekspertlar bahosiga ko‘ra, ushbu yo‘lakning o‘tkazish qobiliyati 12-14 mln. tonna yuk.
- ✓ Shanxaydan Lissabongacha uzluksiz yer usti aloqasi imkoni yaratiladi.
- ✓ Andijon – O‘sh – Qashg‘ar yo‘nalishi qayta quriladi va rivojlantiriladi.
- ✓ Afg‘oniston orqali janubiy muqobil yo‘laklar ishlab chiqish uchun yangi istiqbollar ochildi.

Mamlakat logistika ko‘rsatkichlari

- ✚ Eng yuqori natijalar – infratuzilma va o‘z vaqtida yetkazib berish indikatorlari.
- ✚ Misol uchun:
- ✚ Xitoy – 4.07
- ✚ Singapur – 4.14
- ✚ Qozog‘iston – 2.75

2-jadval

Qiyoslanayotgan davlatlarning logistika ko‘rsatkichlari indeksi

Давлат	ЛКИ ўрни	Божхона	Инфра- тузилма	Халқаро ташувлар	Логистик рақобат	Кузатув ва назорат	Ўз вақтида етказиш
Ўзбекистон	118	2.32	2.45	2.36	2.39	2.05	2.83
Қозоғистон	77	2.52	2.76	2.75	2.57	2.86	3.06
Сингапур	5	4.18	4.20	3.96	4.09	4.05	4.40
Таиланд	45	3.11	3.12	3.37	3.14	3.20	3.56
Хитой	9	3.94	4.10	4.05	4.00	4.03	4.29

Logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari

- ✓ Jahon mamlakatlari tajribasiga ko‘ra, logistika markazlari faoliyati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha samarali olib borilishi lozim:
- ✓ Zaxiralarni qisqartirish va samarali boshqarish
- ✓ Zaxiralarni ulgurji va chakana savdo o‘rtasida qayta taqsimlash va ulgurji bo‘g‘inlarda to‘plash;
- ✓ Zamonaviy texnologiyalar orqali zaxira holatlarini nazorat qilish;
- ✓ Zaxiralarni o‘z vaqtida to‘ldirib borishda ishtirokchilarning muvofiqlashuvi.

Xizmatlar bozorida maydon va hajmdan yuqori foydalanish

- ✚ Logistika vositachisi hisoblangan korxonalarning maydonlari samarali foydalaniladi;
- ✚ Tovar o‘tkazish bo‘g‘inlarining logistik qulayligi do‘konlar maydonini optimallashtirib, savdo maydonchasi hisobiga ko‘paytiradi.

Erishiladigan natijalar:

- ✓ Umumiy zaxiralarni qisqartirish va ularning kattagina qismini ulgurji bo‘g‘inlarga ko‘chirish;

✓ Tayyorlov jarayonlarining (qadoqlash, tamg'alash, narx belgilash) oldingi bosqichlarga ko'chirilishi.

Sarmoyalarning aylanishini tezlashtirish

✚ Talablarni bevosita joylashtirish va bajarish jarayonini vaqt bo'yicha nazorat qilish orqali.

Transport xarajatlarini qisqartirish

- ✓ Ishtirokchilarning transportdan samarali foydalanishi va muvofiqlashuvi orqali.
- ✓ Yuklarni ishlash xarajatlarini kamaytirish
- ✓ Shu jumladan qo'l mehnati xarajatlari ham.

Logistika markazlari samaradorligining ahamiyati

✚ Logistika markazlari faoliyatining samaralari ko'rsatilgan barcha ko'rsatkichlarning yig'indisidan ortib ketadi.

Samaradorlik quyidagi me'yorlar orqali baholanadi:

✓ Yukni zarur sifatda, kerakli miqdorda, belgilangan muddatda va kerakli joyga eng kam xarajat bilan yetkazib berish imkoniyati.

Erkin iqtisodiy zonalar va logistika infratuzilmasi

✚ Erkin zonalar tashkil etilishi mintaqaviy rivojlanishni maqbullashtiradi;
✚ Tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yuqori samarali ishlab chiqarishlarni joylashtirishga imkoniyat yaratadi;

✚ Logistika va transport infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini joriy qilish siyosatini amalga oshirishda yangi qadam hisoblanadi.

Xalqaro integratsiya va transport koridorlari

✓ O'zbekiston bir qator asosiy transport konvensiyalari va xalqaro shartnomalariga qo'shilgan;

✓ Transport koridorlarini diversifikatsiyalash va xalqaro aloqalarni kengaytirish ishlari davom etmoqda.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va transport xarajatlarini kamaytirish uchun strategik ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali zaxiralarni nazorat qilish, yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish va xizmat sifatini oshirish mumkin. Erkin iqtisodiy zonalar va logistika markazlari tashkil etilishi mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirib, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini samarali ta'minlaydi.

Takliflar. Logistika hablari tashkil etish

✚ Farg'ona vodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoi va Buxoro hududlarida logistika hablarni barpo etish;

✚ Xorijiy investitsiyalarni logistika va transport tizimiga jalb qilish.

Zamonaviy logistika markazlari

✓ Barpo etish va ulardan samarali foydalanish ishlarni izchil davom ettirish;
✓ Mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini qo'llab-quvvatlaydigan markazlar tashkil etish.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish

✚ Logistika markazlari va ombor komplekslari tarmog'ini kengaytirish;

O'zbekistonning strategik geografik joylashuvidan foydalanib, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish hamda savdo kompaniyalari logistikasini samarali tashkil etish.

Mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash – transport xarajatlarini kamaytirish, yuklarni o'z vaqtida yetkazish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi - <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>
2. Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. — М.: йлимп-Бизнес, 2001.
3. Чудаков А.Д. Логистика. - М.: Рдл, 2001
4. Носов А.Л. Региональная логистика. - М.: Альфа-Пресс, 2007.
5. Оптимизация транспортных расходов – важный фактор устойчивого развития экономики: проблемы и решения. Аналитический доклад Центра экономических исследований. –Т., No 09/2013, 49 с.
6. Iqtisodiy tadqiqotlar markazining tahliliy hisoboti. - Т., 2013.
7. www.traceca-org.org
8. Jahon bankining logistik ko'rsatkichlar indeksi yillik hisoboti ma'lumotlari 2016 y. <https://lpi.worldbank.org/international/global>